



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ABU NASR FAROBIY TA'LIMOTIDA MUKAMMAL JAMIYAT VA ADOLATLI DAVLAT QURISH G'OYASINING USTUNLIGI

Ahmadjonova Shaxnozaxon Rustamjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

akmadjonovashahnozaxon@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abu Nasr Farobiyning mukammal jamiyat, va adolatli davlat qurish haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Unda mutafakkirning fozil jamiyatni barpo etishda qanday jihatlarga e'tibor berish kerakligini aks ettiruvchi g'oyalari, davlat boshqaruvi tamoyillari hamda adolat va qonun ustuvorligiga doir fikrlari yoritiladi. Shuningdek, Farobiy ta'limotining zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *Abu Nasr Farobiy, fozil jamiyat, davlat, huquq, adolat, jamiyat taraqqiyoti, siyosiy qarashlar, davlat boshqaruvi.*

Abu Nasr Farobiy Sharq falsafasining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning jamiyat, davlat va huquq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U insoniyat taraqqiyotining asosi sifatida mukammal jamiyat va adolatli davlat qurish g'oyalarini ilgari surgan. Farobiy nazarida jamiyatning taraqqiyoti insonlarning o'zaro hamkorligi va axloqiy kamolotiga bevosita bog'liqdir. Bunda jamiyatdagi har bir inson tarbiyaviy jihatdan yuksak salohiyatli, ma'naviy jihatdan barkamol shaxs bo'lishlari lozimdir, chunki ma'naviyatli kishilardan tashkil topgan jamiyatlarda har tomonlama rivojlanishlar bo'ladi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" Aynan shu jihatdan ham, mukammal jamiyat va adolatli davlat qurish g'oyasini targ'ib qilishda birinchi navbatda yoshlarimiz tarbiyasida ma'naviy bo'shliqlarga yo'l q'ymasligimiz zarur hisoblanadi. Abu Nasr Farobiy ta'limotida ham shu kabi insoniy fazilatlarga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Farobiyning "Fozil shahar aholisining qarashlari haqida risola" asari uning ijtimoiy-siyosiy falsafasining cho'qqisi hisoblanadi. Ushbu asarda mutafakkir ideal jamiyat, uning tuzilishi, boshqaruv tamoyillari, aholisining axloqiy fazilatlari va mamlakatda qonunustuvorligiga erishish yo'llarini batafsil bayon etadi. Farobiyning fikricha, fozil shahar bu aholisi o'zaro hamjihatlikda, adolat tamoyillari asosida yashaydigan, ilm-fan va ma'rifat rivojlangan, axloqiy fazilatlar ustuvor bo'lgan jamiyatdir. Farobiy axloqiy fazilatlarga ko'proq to'xtalib, axloqni insonning ichki dunyosini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko'rib, uni insoniy kamolotning muhim qismi deb hisoblagan. Uning fikricha, axloq -bu insonning yaxshi va yomonni farqlash qobiliyati, shuningdek, yaxshi xulq-atvor orqali o'zini va atrofida gilarni yaxshilashga intilishidir deya ta'kidlagan.

Shuningdek, jamiyatni insonlarning birgalikda yashashi va o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun zarur bo'lgan tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, inson yolg'iz holda





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



mukammallikka erisha olmaydi, balki jamiyat ichida yashab, boshqalar bilan o'zaro muloqot qilish va o'zi kabi insonlardan yangi bilimlarni egallash orqali kamol topadi deya ta'kidl aydi. Shuningdek Farobiy jamiyatni "Fozil jamiyat" va "Nodon jamiyat" kabi turlarga ham ajratadi. Fozil jamiyat bu axloqiy jihatdan yetuk, bilimli va adolatli insonlar yashaydigan jamiyatdir. Bunday jamiyatda har bir inson o'z vazifasini to'g'ri bajaradi va umumiy farovonlik uchun xizmat qiladi. Aksincha, nodon jamiyatda esa jaholat, adolatsizlik va tartibsizlik hukm suradi.

Farobiy davlatni jamiyatni boshqaruvchi muhim institut sifatida ko'radi. Uning ta'limotida davlat boshlig'i alohida o'rin tutadi. Davlat rahbari bilimli, dono, adolatli va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. U nafaqat boshqaruvchi, balki jamiyatni to'g'ri yo'lga boshlovchi yetakchi hamdir. Bu jihatdan Farobiy ideal davlat boshlig'ini faylasuf bilan tenglashtiradi. Shu bilan birga davlat rahbari adolatli bo'lish tamouiliga amal qilgan holda davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatishi lozim. Negaki, Adolat bor joyda o'zaro tartib-intizom va xalq orasida hukumatga nisbatan ishonch hisi uyg'onadi deya bir qator qimmatli fikrlarni aytib o'tgan va o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ham fozil shahar hokimlari, umuman, hukumat rahbarlarining qanday insoniy fazilatlarga ega bo'lishlari kerakligi borasidagi qarashlarini tizimli tarzda sharhlab berganligiga guvoh bo'lmiz, ya'ni ularda adolat, or-nomus, vatanparvarlik va boshqa shu kabi xususiyatlarni sanab o'tgan

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Farobiyning ta'limotidagi adolatli jamiyat, davlat barpo etish borasidagi qarashlari bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri sifatida baholanadi va har birimiz uchun tarbiyaviy ahamiyatga egadir.]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi 2021-yil 19- yanvar

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri (Al-Madina al-Fadila). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.

3. Raxmatov "Akbar ABU NASR FAROBIYNING ADOLAT, AXLOQ VA IJTIMOIIY UYG'UNLIK HAQIDAGI G'OYALARI" Maqolasi .2025

